O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
U.A.Xolikov
2025-yil “__” _____
Ro‘yxatga olindi № BD-61010100-1.17
2025-yil “__” _____

TURIZM IQTISODIYOTI

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	1000000	- Xizmatlar
Ta’lim sohasi:	1010000	- Xizmat ko‘rsatish sohasi
Ta’lim yo‘nalishlari:	61010100	- Turizm va mehmondo‘stlik (masofaviy)

Samarqand – 2025

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
TI1606	2027-2028	6	6
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		5

	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1	**Turizm iqtisodiyoti**	72	108	180

I.Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad - talabalarda turistik xizmatlarning milliy iqtisodiyotni ko‘tarishdagi rolini va o‘rnini aniqlash bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirish va iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o‘rgatish hamda ularni amalda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil etish.

Fanning vazifalari – talabalarni turistik xizmatlarning kim tomonidan va qanday tashkil etilishini; turistik xizmatlarni iste’molchiga yetkazish jarayonlarini; turistik maxsulot narxini xisoblashni; turistik firma foydasining shakllanishi va uning taqsimlanishini; firma resurslaridan unumli foydalanishga ta’sir etuvchi omillarni; xizmat sifatini oshirish, uning raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlash va xizmatlarni loyihalashtirish jarayonida xarajatlarni kamaytirish yo‘llarini; turli xil iqtisodiy va tashkiliy tadbirlarni hisoblash va tahlil qilish usullarini; turistik firmalar faoliyatiga taalluqli va unga aloqador bo‘lgan qonunlar hamda qonunosti hujjatlari munosabatlar to‘g‘risida amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish.

II. Asosiy qism (maruza mashg‘ulotlar)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu “Turizm iqtisodiyoti” fanining mazmuni maqsadi va vazifalari

Iqtisodiyot tushunchasi va uning qamrov jihatidan turlari. Iqtisodiy

faoliyatning mazmuni. Turizmning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Iqtisodiyotga oid bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi. Turizm iqtisodiyoti fanining predmeti to‘g‘risida turlicha yondashuvlar. Turizm iqtisodiyoti fanining vazifalari. Turizm iqtisodiyoti boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar.

2-mazvu: Turizmning rivojlanishida asosiy omillar

O‘zbekistonning turistik resurslari, turizm iqtisodiyotining statistik ma’lumotlari, har bir sohasiga ko‘rsatiladigan dasturlar, transport vositalari sektori; turistlarni joylashtirish va oziq-ovqat bilan ta‘minlash sektori; ko‘ngil ochar tadbirlar sektori; turistik operatorlar va turistik agentlari statistikalari.

3-mavzu: Turistik mahsulotlarning turlari va uning taqsimlanishi

Turistik mahsulot to‘g‘risida tushuncha. Turistik mahsulotning hayotiy bosqichlari. Turistik mahsulotning baholanishi. Narx belgilashga ta’sir qiluvchi omillar

4-mavzu: Turizm industriyasida menejmentning rivojlanish bosqichlari

Turizm industriyasida menejmentning zarurligi, menejmentning asosiy ta’lim maktablari va g‘oyalari. Turistik mahsulot tarkibi. Yalpi ichki mahsulotda turizmni o‘rni.

5-mavzu: Turlarni va yo‘nalishlarni ishlab chiqish.

Turistik yo‘nalishlarning asosiy tushunchalari va uni turkumlash. Turlarni tashkil qilish bosqichlari va “Pekij - tur” to‘g‘risida tushuncha. Turistik yo‘nalishlar, transfer, harakatlar strategiyasi, kombinatsiyalar turi, tur xarajatlar.

6-mavzu: Turizm industriyasida texnologik yangiliklarni boshqarish.

Texnologik yangiliklarning turistik biznes samaradorligiga ta’siri. Internetning turizm rivojidagi ahamiyati. Zamonaviy turizmni tashkil qilishda axborotlardan foydalanish

7-mavzu: Mehmonxona xo‘jaligi mohiyati va uni boshqarish asoslari.

Mehmonxona xo‘jaligining joylashuvi va uni turkumlash. Mehmonxonalarda turistlarga xizmat ko‘rsatish texnologiyalari tasnifi.

Mehmonxonada nomer va joyni bron qilish tartib. Mehmonxonalarni boshqarishni takomillashtirish. Bron qilish, bron qilish turlari, mexmonxonalarda menegment, mehmonxonalar xizmatlari.

8-mavzu: Xalqaro turizm tizimi va boshqarishning tarkibiy tuzilishi

Xalqaro savdo nazariyasi. Xalqaro turizm va davlatning to'lov balansi. Yevropa xalqaro savdo tashkilotlarining turizmdagi ahamiyati. Xalqaro shartnomalar tuzishda turizmning o'rni. Eksportni amalga oshirishda turizmning o'rni. Xalqaro shartnomalar, xalqaro tashkilotlar, xizmat ko'rsatish bozori, xalqaro shartnoma bo' limlari, turizm eksporti va importi.

9-mavzu: Turizmda ovqatlanish texnologiyasi va uni tashkil qilish.

Dunyo miqyosida restoran zanjirlarining rivojlanishi va ovqatlanish tarmoqlarining kengayishi. Restoranlarda tannarxga ta"sir qiluvchi omillar. Restoran biznesini shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari. Restoran biznesini boshqarishning usul va uslublarining o'rni. Restoran xizmatlari, bozorida talab va taklif qonuni, Talab funktsiyasining manosi, Restoranlarning marketing dasturi va rejasi.

10-mavzu: Turistlarga transport xizmatini ko'rsatish

Turizm rivojlanishi xizmatlar sohasining asosiy yo'nalishi sifatida. Turizmning iqtisodiy mazmuni va mohiyati. Turistik transport sayohatini turkumlash.Turistlarni havo yo'li, suv va temir yo'llari orqali transportda tashish qoidalari. Turistlarni avtobuslarda tashish tasnifi va qoidalari. Xalqaro yo'nalishlarda transport sayohatlarini tashkil qilish xususiyatlari

11-mavzu: Turistik faoliyatni davlat tomonidan nazorat qilish

Turistik faoliyatni nazorat qilishda xalqaro tajriba. Turizmda davlatning bosh islohatchi bo'lishini ta`minlash. Turistik firmalarga davlat tomonidan berqiladigan yangilliklar. Turizm qarori, imtiyozlar, turistik firmalar, onlayn viza, xalqaro tajriba.

12-mavzu: Turistlarga ekskursiya xizmatini ko'rsatish

Turistlar ekskursiya xizmati ko'rsatish asoslari. Ekskursiyaning turizmga bog'liqligi. Turistlarning ekskursiya qilishdan maqsadi. Xizmatlar sohasi

strukturasi va funkstiyalari. Servis va xizmat ko"rsatish sohasining tabiati va mohiyati. Xizmatlar, servis, asosiy va qushimcha xizmatlar, is'temolchilarning hulq atvori.

13-mavzu: Turistik firmalarning biznes rejasi

Turistik firmalar faoliyatini rivojlantirish asoslari. Turistik firmalarda biznes reja loyihalari. Turistik firmalarning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari. Marketing, moliyalashtirish rejalari va tarkibi. Turizm sanoatini, milliy turizm tashkilotlarini, turizm maskanlari, turizm infratuzilmasi.

14-mavzu: Turizmda investitsion loyihalarning samaradorligini baholash

Turizmda investitsion loyihalarning guruhlarga bo'linishi. Investitsiya loyihalarining tijoriy ahamiyati, investitsiya, investitsion loyihalar, investitsion manba.

15-mavzu: Turismda sug'urtalashning iqtisodiy mohiyati

Turistik sug'urta va uning turlari. Turizmda sug'urta tushunchasi. Turistlar va turistik tashkilotlarni sug'urtalashning chet el tajribalari. Turistlarning sug'urta kompaniyalari bilan qiziqish sabablari

16-mavzu: Turizmda shartnoma munosabatlari

Turistik korxonalarning turmahsulotlarni sotishdagi asosiy hamkorlik munosabatlari. Turizmda agentlik shartnomalarini tuzish usullari. Turistik shartnomaning zaruriy shartlari

17-mavzu: Turistik korxonalarni soliqqa tortish

O'zbekiston turizmida soliq tizimining takomillashuvi. Xorijiy mamlakatlarning soliq tizimidagi imtiyozlar va qulayliklar. Turizmda qo'shimcha qiymat solig'i.

18-mavzu: Turistik faoliyatni litsenziyalashning iqtisodiyotga tasiri

Turizmda litsenziya olish uchun taqdim qilinadigan hujjatlar va ularning mazmuni. Turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi turistik korxonalarga litsenziya berish tartiblari. Germaniya va Angliya mamlakatlarida litsenziya berish tartiblari. Turfirmalarning litsenziyaga amal qilish shartlari

III. Amaliy mashg'ulotlarlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi

Aauditoriyada:

1. "Turizm iqtisodiyoti"fanining mazmuni maqsadi va vazifalari
2. Turizmning rivojlanishida asosiy omillar
3. Turistik mahsulotlarning turlari va uning taqsimlanishi
4. Turizm industriyasida menejmentning rivojlanish bosqichlari
5. Turlarni va yo'nalishlarni ishlab chiqish.
6. Turizm industriyasida texnologik yangiliklarni boshqarish
7. Mehmonxona xo'jaligi mohiyati va uni boshqarish asoslari.
8. Turizmda ovqatlanish texnologiyasi va uni tashkil qilish.
9. Turizmda ovqatlanish texnologiyasi va uni tashkil qilish.
10. Turistlarga transport xizmatini ko'rsatish
11. Turistik faoliyatni davlat tomonidan nazorat qilish
12. Turistlarga ekskursiya xizmatini ko'rsatish
13. Turistik firmalarning biznes rejasi.
14. Turizmda investitsion loyihalarning samaradorligini baholash.
15. Turismda sug'urtalashning iqtisodiy mohiyati
16. Turizmda shartnoma munosabatlari
17. Turistik korxonalarni soliqqa tortish
18. Turistik faoliyatni litsenziyalashning iqtisodiyotga tasiri

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. O'zbekistonning turistik resurslari va ularning iqtisodiy samaradorligi

Maqsad: resurslarning turizm daromadlari, bandlik va hududiy rivojlanishga ta'sirini baholash.

Natija: SWOT-tahlil + jadval (resurs → iqtisodiy ko'rsatkichlar).

Bosqichlar: Resurslarni tasniflash. Har bir resursning turist oqimiga ta'siri. Turizm daromadi va YAIMdagi ulushini hisoblash. Hududiy iqtisodiyotga ta'sirini yozish.

2. Turizm iqtisodiyotining statistik ko'rsatkichlari

Maqsad: asosiy iqtisodiy indikatorlar (daromad, bandlik, xizmat eksporti)ni talqin qilish.

Natija: 3–5 yil kesimida grafik va trend tahlil.

Bosqichlar: UNWTO va World Bank ma'lumotlarini yig'ish. Ko'rsatkichlarni solishtirma jadvalga joylashtirish. Trendlarni sharhlash. Siyosiy tavsiyalar.

3. Turistik mahsulot hayotiy sikli (PLC) va uning iqtisodiy qiymati

Maqsad: paket-tur yoki mahsulotning iqtisodiy bosqichlari va daromad marjasi.

Natija: PLC + daromad xaritasi (har bosqichda ROI).

Bosqichlar: PLC nazariyasi. Paket-tur tanlash (misol). Har bosqichda xarajat–daromad nisbatini yozish. Narxlash strategiyasi.

4. Turizm industriyasida menejment maktablari va iqtisodiy samaradorlik

Maqsad: boshqaruv yondashuvlarining foyda, xarajat va samaradorlikka ta'siri.

Natija: jadval — "menejment yondashuvi → iqtisodiy natija".

Bosqichlar: Klassik, insoniy munosabatlar va zamonaviy nazariyalarni qisqacha yozish. Har birining iqtisodiy oqibatlarini ko'rsatish. Mehmonxona misolida amaliy ko'rsatkichlar (RevPAR, GOPPAR).

5. **Turistik yo'nalishlarni turkumlash va ularning iqtisodiy salohiyati**

Maqsad: destinatsiya tipologiyasi va daromad potentsialini tahlil qilish.

Natija: 2x2 matritsa ("Tabiiy–Madaniy" × "Past–Yuqori daromad").

Bosqichlar: Yo'nalishlarni tanlash. Ularning turist oqimi va sarfini hisoblash. Pozitsiyalash xaritasi. Qaysi segment yuqori daromadli?

6. Paket-tur tashkil qilish bosqichlari va iqtisodiy xavflar

Maqsad: paket-tur narxlash, risklar va foyda chegarasini ko'rsatish.

Natija: "Xarajat → Narx → Foyda marjasi" jadvali.

Bosqichlar: Paket elementlarini hisoblash (avia, mehmonxona, xizmatlar). Narxlash (break-even point). Risk tahlili (overbooking, kurs o'zgarishi). Xulosa: optimal marja.

7. Mehmonxona xo'jaligi joylashuvi va iqtisodiy ko'rsatkichlari

Maqsad: lokatsiya daromad va bandlikka ta'sirini tahlil qilish.

Natija: joylashuv → RevPAR/ADR → solishtirma jadval.

Bosqichlar: KPI tushunchalari. lokatsiya modeli (markaz, chekka, aeroport). Daromad farqlarini hisoblash. Xulosa: qaysi segment samaraliroq.

8. Turizm marketingining iqtisodiy xususiyatlari

Maqsad: xizmatlar marketingining iqtisodiy oqibatlarini ko'rsatish.

Natija: 1 oylik marketing kampaniyasi → kutilgan ROI.

Bosqichlar: Marketing xususiyatlarini o'rganish. Segment tanlash. Kampaniya rejasi (byudjet + KPI). ROI formulasi bilan hisoblash.

9. Xalqaro savdo nazariyalari va turizm xizmatlari eksporti

Maqsad: xizmatlar savdosini (turizm) klassik nazariyalar bilan izohlash.

Natija: "Nazariya → Turizm iqtisodiy misoli" jadvali.

Bosqichlar: Rikardian, gravitatsiya va boshqa nazariyalarni yozing. Turizm xizmatlari eksporti bilan bog'lang. O'zbekiston uchun iqtisodiy foydalarni tahlil qiling.

10. Turistik sug'urta va uning iqtisodiy samaradorligi

Maqsad: risklarni kamaytirish orqali daromad va ishonchlilikni oshirishni ko'rsatish.

Natija: "Risk → Sug'urta → Moliyaviy ta'sir" jadvali.

Bosqichlar: Asosiy sug'urta turlari. Narx va qamrov hisoblari. Daromadga ta'sir (qayta xarid, mijoz ishonchi). Xulosa sifatida maqola yozish va tahlil qilish.

11. QQS (VAT) va turizm biznesining rentabelligi

Maqsad: QQS stavkalari narx va foydaga ta'sirini aniqlash.

Natija: QQS bilan/QQSsiz narx taqqoslash.

Bosqichlar: QQS nazariyasi. Turizm (mehmonxona/restoran) uchun misollar. Narx va foyda hisob-kitobi. Siyosiy xulosa.

12. Xalqaro transport yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorlik

Maqsad: transport zanjiri va tranzitning iqtisodiy qiymatini hisoblash.

Natija: ikki yo'nalish solishtirma jadvali (vaqt, xarajat, daromad).

Bosqichlar: Yo'nalishlarni tanlash. Xarajat va daromad komponentlarini

	yozish. Alternativ yo'llar samaradorligini solishtirish. Xulosa: qaysi yo'nalish eng foydali.
3	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • "Turizm iqtisodiyoti" fanining vujudga kelishi va uning rivojlanishining asosiy yo'nalishlari haqida hamda ularning asosiy g'oyalari to'g'risida yaxshi tasavvurga yega bo'lishi kerak. Iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning o'zaro aloqa va bog'liqligini, resurslarning cheklanganligini va aholi farovonligini oshirish maqsadida ulardan muqobil foydalanish usullarini bilishi lozim. **(bilim)** • Turizm sohasida iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, turizm iqtisodiyoti qonunlari va tamoyilllarini o'rgatish hamda ularni amalda tadbiq yetish ko'nikmasini hosil qilishning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishga yo'naltirish bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lishi; **(ko'nikma)** • Trurizm sohasida iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usularini qo'llash; iqtisodiy qonunlarni, ilmiy tushunchalar (kategoriyalar)ni, iqtisodiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi.*** **(malaka)**
4	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; •interfaol keys-stadilar; •seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); •guruhlarda ishlash; •taqdimotlarni qilish; •individual loyilalar; •loyiha tahlili; •misol va masalalar; •jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.
6	**Asosiy adabiyotlar** 1. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Barkamol fayz media, 2017. 2. Amonboyev M., Abidova D.I., Jurayeva N.A. Turizm iqtisodiyoti va menejmenti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISODIYOT", 2019. - 226 bet. 3. Turizm to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari 4. Alieva M.T. Mehmonxona menejmenti. Darslik. - T: TDIU. 2010. -275 b. 5. Борисов Ю.И, Сигов А.С, Нефедов В.И. Метрология, стандартизация и сертификация. Учебник. – М.: ФОРУМ: ИНФРА – М. 2005 6. Ильина Е.Н. Туроперейтинг: организация деятельности: Учебник. - М.: Финансы и статистика. 2005. - 480 с **Qo'shimcha adabiyotlar** 6. Хамидов О. Х.Ўзбекистон экологик туризмни ривожлантиришни бошкариш такомиллаштириш: муоммо ва ечимлар / Хамидов О. Х., Шадиев Р. Х., Навруз-зода Б. Н., Асланова Д. Х.. - Тошкент : Иқтисодиёт, 2016. 7. Safayeva S. R.Restoran biznesi marketingi : o'quv qo'llanma / Safayeva S. R., Xamidov O. X., Tolipova N., Abidova D. I.. - Toshkent : Iqtisodiyot, 2016. 8. By Hans Mol Series edited by Terry Phillips "English for Tourism and Hospitality in Higher Education Studies, Course Book with audio CDs" Patricia Paskins 2010. 340 p. 9. Турковский М. Маркетинг гостиничных услуг: учеб.-метод. пособ.: пер. с польск. – М.: ФиС, 2014. – 296 с.

	Axborot manbaalari 11.www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali. 12. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 13. www.ziyonet.uz – ta'lim portali 14.www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi sayti 15.www.mineconomy.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi sayti 16. https://oxfordtax.sbs.ox.ac.uk/sitefiles/wp2402-delaferia.pdf?utm_source 17. https://ira.lib.polyu.edu.hk/handle/10397/84902?utm_source
7	Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2025-yil "____" _____ dagi "____"-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
8	**Fan/modul uchun mas'ullar:** Sh. Berdiyorov - SamDCHTI, "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi stajyor-o'qituvchisi.
9	**Taqrizchilar:** **S.A.Abduhamidov** – SamISI "Turizm" kafedrasi mudiri, dotsent **F.R. Xalimova** – SamDChTI, Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi v.b. professori, DSc.